O‘ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO: MINTAQAVIY BARQARORLIK YO‘LIDAGI TINCHLIK SARI DADIL QADAMLAR

Davron Muitov
Siyosiy fanlar nomzodi, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan tashqi siyosati hamda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, davlatlar o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirish, chegara va suv-energetika masalalarini tinch yo‘l bilan hal etish, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikni kengaytirish hamda preventiv diplomatiya mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada iqtisodiy islohotlar, investitsiyaviy hamkorlik, xalq diplomatiyasi va mintaqaviy integratsiyaning tinchlik hamda barqarorlikni mustahkamlashdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston tashqi siyosati, Markaziy Osiyo, mintaqaviy barqarorlik, tinchlik diplomatiyasi, preventiv diplomatiya, mintaqaviy xavfsizlik, yaxshi qo‘shnichilik, xalqaro hamkorlik, mintaqaviy integratsiya, iqtisodiy hamkorlik, xalq diplomatiyasi, BMT, investitsiyaviy hamkorlik.

Abstract. This article examines Uzbekistan’s foreign policy aimed at ensuring peace, security, and sustainable development in Central Asia, as well as the country’s role in strengthening regional cooperation. It analyses the development of good-neighbourly relations among states, the peaceful resolution of border and water and energy issues, the expansion of cooperation with the United Nations, and the improvement of preventive diplomacy mechanisms. Particular attention is paid to the importance of economic reforms, investment cooperation, people-to-people diplomacy, and regional integration in strengthening peace and stability in the region.

Keywords: Uzbekistan’s foreign policy, Central Asia, regional stability, peace diplomacy, preventive diplomacy, regional security, good-neighbourly relations, international cooperation, regional integration, economic cooperation, people-to-people diplomacy, United Nations, investment cooperation.

Аннотация. В статье рассматривается внешняя политика Узбекистана, направленная на обеспечение мира, безопасности и устойчивого развития в Центральной Азии, а также роль страны в укреплении регионального

DOI: 10.5281/zenodo.24240369

сотрудничества. Анализируются вопросы развития добрососедских отношений между государствами, мирного урегулирования пограничных и водно-энергетических вопросов, расширения сотрудничества с Организацией Объединённых Наций и совершенствования механизмов превентивной дипломатии. Особое внимание уделяется значению экономических реформ, инвестиционного сотрудничества, народной дипломатии и региональной интеграции в укреплении мира и стабильности в регионе.

Ключевые слова: внешняя политика Узбекистана, Центральная Азия, региональная стабильность, дипломатия мира, превентивная дипломатия, региональная безопасность, добрососедство, международное сотрудничество, региональная интеграция, экономическое сотрудничество, народная дипломатия, ООН, инвестиционное сотрудничество.

Bugun yangi O‘zbekiston tashqi siyosati. Markaziy Osiyo mintaqasining ziddiyatlar makonini tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik hududiga aylantirishning asosiy mexanizmini oldinga surish yo‘liga jadal o‘tdi. Ayni mintaqa davlatlari, xususan, O‘zbekistonning faol tashqi siyosiy tashabbuslari tufayli Markaziy Osiyoda yangi siyosiy muhit va integratsiya ruhi shakllanmoqda [1, 388].

Ta’kidlash joizki, bugun O‘zbekiston mintaqaviy yaqinlashuv, integratsiya va proaktiv xalqaro hamkorlikka muvaffaqiyatli o‘tgan davlat sifatida tanilmoqda.

Ayni paytda O‘zbekiston iqtisodiyoti yanada ochiq va bozor mexanizmlariga yo‘naltirilmoqda. Valyutaning liberallashtirilishi, kapital harakati va tashqi savdoga qo‘yilgan cheklovlarning bekor qilinishi, shuningdek, davlat aktivlarining xususiylashtirilishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining barqaror o‘sishiga xizmat qildi. Bular shunchaki yuzaki o‘zgarishlar emas, balki O‘zbekiston iqtisodiyotining faoliyat yuritish tamoyillarini hamda mamlakatning xalqaro hamkorlar tomonidan idrok etilishini o‘zgartirgan chuqur tarkibiy islohotlardan darak beradi.

Ayniqsa O‘zbekistonning yangi tashqi siyosat kursida Markaziy Osiyo diplomatiyasiga ustuvorlik berilishi qo‘shni davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni tiklashga, ko‘p yillik chegara va suv masalalarini hal etishga yordam berdi. O‘zbekiston poytaxti Toshkent Markaziy Osiyo mintaqaviy muloqotining chinakam markazi sifatidagi rolini mustahkamlanmoqda.

Bu o‘z navbatida Markaziy Osiyodagi geosiyosiy vaziyatni o‘zgartirib, uni ziddiyatlar makonidan tinchlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanish sohasidagi umumiy tahdidlarga birgalikda javob berishga yaxshiroq tayyorlangan hamkorlikka asoslangan mintaqaviy tizimga aylantirishga ko‘maklashdi.

Ikkinchidan, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi mintaqa davlatlarining o‘z iltimosiga ko‘ra, ularga xavfsizlik sohasidagi umumiy muammolarni birgalikda hal qilish uchun betaraf va xolis maydon taqdim etish maqsadida tashkil etilgandi. O‘zbekiston boshidanoq bu say-harakatlarda eng faol hamkorlardan biriga aylandi. Zotan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Biz qatiy ishonamiz – Birlashgan Millatlar Tashkiloti bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o‘rin tutadi “ degan qaydlari buni yana bir bor tasdiqlaydi [2, 403].

Shu tariqa so‘nggi o‘n yil mobaynida O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada faollashmoqda. O‘zbekiston Davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarida mintaqadagi eng uzoq davom etgan keskinlik manbalaridan birini bartaraf etishda konstruktiv rol o‘ynadi. Zotan O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston rahbarlarining Xo‘jandda bo‘lib o‘tgan uch tomonlama sammiti hamda uning yakunlari bo‘yicha qabul qilingan hujjatlar yaxshi qo‘shnichilik munosabatlaridagi davlatlar ko‘p yillik chegara masalalarini qay tarzda muvaffaqiyatli hal qila olishini namoyish etdi [3]. Farg‘ona vodiysidagi tinchlik jarayoni doirasida har uchala mamlakat yoshlarini tinchlik va ishonchni mustahkamlashga bevosita jalb qiladigan “Yosh tinchlikparvarlarning transchegaraviy tashabbusi” nomli yangi loyihasi orqali rivojlantirmoqda.

Qolaversa terrorizmga qarshi kurash sohasida va 2022 yilda Toshkentda kelishilgan Qo‘shma harakatlar rejasi doirasida butun mintaqa bo‘ylab zo‘ravonlikka olib keluvchi ekstremizmning oldini olish, terrorizmga qarshi kurashish, shuningdek, qurolli mojarolar hududlaridan qaytgan shaxslarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish masalalari bo‘yicha o‘quv tadbirlarini o‘tkazildi. Suv resurslari, energetika va iqlim o‘zgarishi – tarixan daryolarning yuqori va quyi oqimlarida joylashgan mamlakatlar munosabatlaridagi eng nozik masalalardan biri bo‘lib, biz bu mavzuni qarama-qarshilik emas, balki hamkorlik ruhida saqlab qolishga muvaffaq bo‘lindi . Orol dengizi inqirozi bilan bog‘liq muammolarni hal etishda O‘zbekiston va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda [4].

Umuman olganda, suv resurslari masalasini faqat ekologik muammo sifatida emas, balki tinchlik va xavfsizlik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilmoqda. Shuningdek, Inklyuzivlik masalalariga ya’ni, Markaziy Osiyo ekspertlar forumi, Ayol yetakchilar forumi va Yoshlar uchun preventiv diplomatiya akademiyasi kabi platformalar mintaqaviy muloqot ishtirokchilari doirasini sezilarli darajada kengaytirdi. Bugungi kunda unda nafaqat hukumat vakillari, balki tadqiqotchilar, ayol yetakchilar va yoshlar ham qatnashmoqda. O‘zbekiston bu kabi keng qamrovli va inklyuziv yondashuvni doimo qo‘llab-quvvatlab keladi.

Uchinchidan, Islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri yanada ochiq, sarmoyaviy jozibador va xalqaro hamkorlikka yo‘naltirilgan iqtisodiyotni yaratish bo‘ldi. ushbu o‘zgarishlar xalqaro hamjamiyat, sarmoyadorlar va hamkorlarning ishonchini mustahkamlashga ijobiy tasir o‘tkazdi.

Xulosa qilib aytganda bugun o‘n yillik islohotlar davomida O‘zbekiston qator xalqaro va mintaqaviy loyihalarning tashabbuskoriga aylanmoqda. Amalga oshirilgan tashabbuslar nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyo va umuman xalqaro hamjamiyat uchun ham uzoq muddatli ahamiyatga ega bo‘ladi. Zotan, bugungi Markaziy Osiyo bir necha yil avvalgiga qaraganda chuqur integratsiyalashgan, jipslashgan va yagona hududdir. Umumiy manfaatlar asosida hamkorlikni kengaytirish hamda mintaqaviy xatarlarga birgalikda yechim izlash mintaqaviy hamkorlikning asosiy g‘oyasiga aylanib ulgurdi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашр. –Т.: 2022. “Ozbekiston “ нашриёти. 388-бет.

2. O‘sha manba. 403-бет

3. *Qarang:* Маккамбоев П.А. Новый мировой порядок и проблемы безопасности. –Т.: Академия Воруженных сил Республики Узбекистан. 2023.922 стр.

4. *Qarang:* Б. Алимов. Медиа муҳитда Ўзбекистон имижи. Илмий монография. “Таьлим медиа” нашриёти. -Т.: 2020. 31 бет.; Д. Муитов. Халқаро журналистикада геосиёсий масалалар. Дарслик. -Т.: “BOOK TRAD” нашриёти, 2025. 120 бет.; Ф.Толипов. Обьекти, субьекти и носители мягкой силы: Центральноазиатский геополитический контекст. “Konsensus” xalqaro jurnali. 26-36 бетлар.; С.Саидов. Феномен «маягкой силы» и некоторые аспекти в внешной политике. Вестник. Высшей школы. Международные отношение. -М.; 2022. -№ 4, -94-108 стр.